

## SHE'RIYATDA DETAL OBRAZI (ABDUVALI QUTBIDDIN IJODI MISOLIDA)

**Ramazonova Gulchehra Xidirali qizi**

*ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti )fakulteti 2-kurs magistranti  
gulchehraramazonova@gmail.ru*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida keng qo‘llanuvchi detal obraz tushunchasi haqida so‘z yuritildi. Abduvali Qutbiddin ijodida uchraydigan maysa, quduq, nina kabi detallar tahlilga tortildi. Detallarning turlarga bo‘linishi va ahamiyati o‘rganildi. Halima Xudoyberdiyeva va Abduvali Qutbiddin ijodidagi o‘xshashlik aniqlandi. Shoir ijodidagi ijtimoiy va falsafiy mavzular haqida so‘z yuritildi.

**Kalit so‘zlar:** detal, maysa, quduq, ajdarho, nina, tovon qoni.

“Bugungi o‘zbek she‘riyatining an‘anaviy tasvir uslubidan farq qiluvchi jihati- yangicha obrazlar ,kutilmagan ramziy ifodalar ,qochirimlar, tazod va parodokslar ,eng muhimi betakror serohang ,serma‘no ifodalar bilan kitobxonni o‘ylantirishidir. Fikrning ixcham ,lo‘nda shaklda ifodalanishi ,zamonamiz va zamondoshimiz ruhiy olamini yangi jihatlardan poetik tadqiq etish- insonning bezovta ruhini ,dardlarini tasvirlash borasida erishgan yutuqlari o‘zbek she‘riyati yangi poetik sarhadlarni kashf etayotganligidan dalolatdir.” Abduvali Qutbiddin ijodi ham o‘z o‘rnida shu kabi kashfiyotlarga to‘la . Shoir ijodining kuchli tomoni ham uning detallari harakatchan va ayni ma‘noda shok etuvchi tizimga asoslanganligi bilan o‘lchanadi “.Detail deganda muayyan asar to‘qimasidagi predmet , belgi, chizgi kabilarni tushunamiz .Biroq asardagi har qanday predmet ,belgi, chizgilar ham badiiy detal bo‘la olmaydi .Detail odatda, lo‘nda ,aniq, yorqin va obrazli bo‘lib asosan tasvir obyektini sintezlashtirib ko‘rsatishga xizmat qiladi. San‘at asaridagi har bir detal, epizod, voqea, manzara va obraz, tasvir vositalari yozuvchining g‘oyaviy -badiiy niyatiga xizmat qildiriladi”. Shoir qalamiga mansub Osima she‘ri detal obrazi nuqtai nazaridan tahlil qilinganda yolg‘izlik, alam, ichki iztirob va ertangi kunga umid kabi mavzular yoritilgani ko‘zga tashlanadi. Detail obrazi she‘rda hissiy zo‘riqishni kuchaytiradi va keskin lirik kechinmani vujudga keltiradi.

Osima!

Bizga yot tevarak -chovut,

Atrof qisirlaydi.

Qisadi-panja,

Yupunsan kiygali sovuting yo‘qmi

Jirkanchdir iskanja.

Birinchi banddayoq shoir muhitning xatari haqida xabar beradi. Siqilish. o'zini qo'yarga joy topolmaslik, jirkanish holatlari alohida planga chiqadi. Chovut-hamla, tajovuz, tashlanish yoki biror narsaga qasd qilish ma'nolarini beradi. Bu misrada detal g'amdan emas, tanaga og'ir botadigan og'riqdan so'z yurityabdi."Detal obrazlar(tafsilotlar,narsa-buyumlar ,portret,peyzaj) o'zlarining statik holatdaligi bilan farqlanadi. Detal obrazlardan badiiy reallikning ikkinchi qatlami- ichki yoki tashqi harakatdan tarkib topuvchi voqea-hodisalar obrazi o'sib chiqadi". Bu olam bizga begona, sovuq har damda tashlanishga tayyor. U qo'llari bilan bizni bug'moqda.Keyingi baytlarda " yopishib qolmasdi yuzingga bu qor" misrasidan sovuq , shum xabar yaqinlashgani oydinlashadi. Zero, adabiyotda qor oqlikka burkanish, sovuqlik jihatdan esa o'limga qiyoslanadi. Inson narigi dunyoga safar oldidan qor rangiga kiradi, shunday unsiz va shunday sovuq ."Qutqarib ol debon yalindim yuz bor" deya insonning ojizligi yana bir bor badiiy ifodalangan.

Osima!

Tovoning qoni oqdimi,

Shimirgan maysaning rangi

alvondir.

Ranjlisan.

Bekinsang

yupanching yo'qmi?

Burdsiz zamondir.

Maysa qachon qizil rangga kiradi. Kuz fasli kelishi bilan o't -o'lanlar oltin rangga kirishi mumkin ,xuddi yo'qlikka mavhum bo'lishdan oldin bir porlagan kabi, ammo qizil tusga kirish o'zgacha topilma .Bu yerda "tovoning qoni oqdimi" jumlasini ham tahlil talab .Shu o'rinda Halima Xudoyberdiyevaning "Begim sizni tabiat " she'ridagi yorini o'zgaga bermaslik uchun jonini bergan ayol obrazi yodga tushadi:

Sizni men o'zimga ham loyiq ko'rmam rosti

gap ,

O'zgaga bermoq esa tushimga kirmas uxlab .

O'zga bilan ketsangiz ravon yo'llar ravon

qolmasin ,

Begim ikkilanmasdan yer yuzin tashlang

mixlab.

Demak, har ikki she'rda milliy mentalitetga xos bo'lgan detal, ya'ni o'zbeklarga xos sadoqat ,or, nomus, milliy g'urur masalalari yoritilgan." Detal obrazlarni ikkiga bo'lib tasnif etish mumkin:

1)umumiy detal obraz- butun insoniyat uchun tanish va bir xil vazifa bajaruvchi obraz.

2) milliy mentalitetga xos detal obraz -faqat bizning xalq orasidagina

qo'llanuvchi , milliy g'urur , iftixor timsollari vazifasini o'tovchi predmetlar, peyzajlar . urf-odatlar obrazidir.”

Men juda yolg'izman,  
Go'yo quduqda  
Qovurg'amgacha suv, badanim og'u  
Bilagim uvushib tipirchilaydi-  
Misli so'nggi nola ,oxirgi yohu

Ushbu she'rda yolg'izlik hissi bir qancha obrazlar orqali ifodalangan , biroq ularning markazida quduq detal obrazi turadi. Bu yerda u faqat makon emas, lirik qahramonning ichki dunyosi, ruhiy qiynalishi, borliqdan uzilish holatlarining ifodasidir. Chunki quduq-cho'qqiga chiqish imkoniyati yo'qolgan ,umidsizlik va erkidan ajralish , ojizlik timsolidir. “So'nggi nola”tamoman yo'qlikka botayotgan insonning oxirgi hayqirig'i. “Bezillar, yashinar mendan chuvalchang, Qurbaqa...” – quduqda yashovchi eng oddiy jonzotlar ham lirik qahramondan yuz o'giradi.

Men juda yolg'izman –  
Qo'limda nina  
Tilaman, qaziyman

chuqurdan -chuqur

Tepadan tosh to'la paqir

tashlarlar,

So'rarlar qilib ber deya

javohir.

Bu yerda detal absurd harakatni ifodalaydi. Xalq orasida “igna bilan quduq qazish “qiyin narsa uchun harakat qilish ma'nosida qo'llaniladi.Nina bilan qazish shu ma'noda umidsizlik, azobni chuqurlashtirish vositasi.Tepadan tosh tashlab uni javohirga aylantirib ber deyilishi , zulmatni ziyoga aylantir degandek gap. So'ngra “zanglagan qadimiy taqa” – nafaqat vaqt, balki omadning nishonasi. Taqa adabiyotda odatda omad ramzi sanaladi, ammo bu yerda u zanglagan, ishlamaydigan, faqat yuk vaifasini bajara oladi. Bu ikki detal – nina va taqa – yolg'izlikni yanada og'irlashtiradi. Tubsizlikda qancha chuqurga borilsa, mehnat shunchalik ma'nosiz, topilgan narsalar esa befoyda bo'laveradi. She'r Ajdarman, Va ismim “Oh”dir mening “Oh”jumlalari bilan yakunlangan . She'r oxirida lirik qahramon ajdarhoga aylandi. Ajdarho-botirlik ramzi. Yolg'izlik, ishonchsizlik, doimiy umidsizlikdan so'ng insonning qo'rquv hissi yo'qolishi u endi hech nimadan seskanmaydigan holga kelishi muqarrar.Ushbu tahlilga tortilgan she'rda quduq faqat tasviriy detal emas o'z o'rnida ruhiy ,falsafiy ma'no yuklatilgan detaldir.Detal obrazlarning ahamiyatli jihati ham shundaki,ular orqali nafaqat ko'rish, balki his qilish yuqori darajada ishontirish mumkin.Abduvali Qutbiddin ijodidagi quduq,

maysa, xanjar singari bir qancha daetallar aynan shu vazifalarni to‘laqonli bajaradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov Dilmurod -Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent.242b.
1. 2.Тухта Бобоев -Адабиётшунослик асослари. Тошкент: “Ўзбекистон”2002.560б.
2. Халима Худойбердиева- Сайланма. Тошкент: Шарқ нашриёти, 2000. 356бет.
3. 4.Xudoyorova Gulrux -Abdulla Oripov she’riyatida lirik kechinma va poetik tasvir uyg‘unligi. Dissertatsiya. Toshkent. 2022. 134b
4. 5.Укув кулланма- Хозирги адабий жараён.- Тошкент.2008.